



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 196-204 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA IQTISODIY DIVERGENTSIYA VA IJTIMOYIY KONVERGENTSIYA HOLATINI BAHOLASH MEXANIZMI



Burxanov Aktam Usmanovich

O'zMU "Moliya va kredit" kafedrası professori, i.f.d., prof

Boltayeva Zinora Mirdjonovna

Alfraganus universiteti "Menejment va Marketing" kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasidagi hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv jarayonining 2010–2025-yillardagi empirik tahlili natijalariga bag'ishlangan. Tadqiqotning markaziy gipotezasi iqtisodiy divergensiya va ijtimoiy konvergensiyaning bir vaqtda tartibga solining samarali mexanizmlari taxlil qilingan. Tahlil 12 ustuvor yo'nalish, 14 hudud va 181 indikator kesimida amalga oshirilgan va Triangular Convergence Index (TCI) metodologiyasi orqali tizimlashtirildi. Asosiy muammoning huquqiy asoslari – O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy siyosati samarali amalga oshirilyotganligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun farovonlikka asoslangan iqtisodiy modellarni qurish uchun O'zbekiston siyosati eng muxim tajribalardan biri ekanligini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tabaqalashuv, hududiy konvergensiya, divergensiya, kambag'allikni qisqartirish, farovonlikka asoslangan davlat siyosati, xududiy ijtimoiy tabaqalashuv xolati taxlili, TCI metodologiyasi.

Abstract. This article is devoted to the empirical analytical results of the socio-economic stratification process in 2010-2025 in the Republic of Uzbekistan. The central hypothesis of the research is the analysis of effective mechanisms of simultaneous regulation of economic divergence and social convergence. The analysis was carried out in 12 stable directions, 14 regions and 181 indicator segments and was systematized using the Triangular Convergence Index (TCI) methodology. confirmed that the legal basis of the main problem - the socially developed economic policy of the Republic of Uzbekistan is being effectively implemented. The policy of Uzbekistan is one of the most important experiences for the development of economic models of prosperity for developing economies.

Key words: social stratification, territorial convergence, divergence, creation of poverty, stable state policy for welfare, analysis of regional social stratification, TCI methodology.

Аннотация. Данная статья посвящена эмпирическим аналитическим результатам процесса социально-экономической стратификации в 2010-2025 гг в Республике Узбекистан. Центральной гипотезой исследования является анализ эффективных механизмов одновременного регулирования экономической дивергенции и социальной конвергенции. Анализ проводился по 12 устойчивым направлениям, 14 регионам и 181 индикаторному сегменту и систематизирован с использованием методологии Triangular Convergence Index (TCI). подтвердил, что эффективно реализуется правовая основа основной проблемы – социально развитой экономической политики Республики Узбекистан.

Политика Узбекистана является одним из важнейших опытов разработки экономических моделей процветания развивающихся экономик.

Ключевые слова: социальная стратификация, территориальная конвергенция, дивергенция, создание бедности, стабильная государственная политика благосостояния, анализ региональной социальной стратификации, методология TCI.

1. Kirish

Hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv masalalari zamonaviy iqtisodiy geografiya, mintaqaviy iqtisodiyot va ijtimoiy fanlarining asosiy muammoli tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Klassik iqtisodiy nazariya bir tomondan bozor mexanizmlari hududlararo tafovutlarni qanday shakllanishiva kuchaytirishini tushuntiradi (Krugman, 1991; Myrdal, 1957), ikkinchi tomondan davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan davlat siyosatining mazkur tafovutlarga moslasha oladigan davlat siyosatini amalga oshirish yo'nalishlari ishlab chiqish lozimligini belgilab beradi (Esping-Andersen, 1990; Piketti, 2014).

Klassik nazariyalar mazkur ikki jarayonni - bozorни tabaqalashtiruvchi ta'sirlar va davlat muvozanatlashtiruvchi ta'sirini - ko'pincha ketma-ket bosqichlar yoki o'zaro mustaqil hodisalar sifatida talqin qiladi. Biroq emerging iqtisodiyotlar (rivojlanayotgan iqtisodiyotlar) sharoitida ikkala jarayon bir vaqtning o'zida sodir bo'lishi mumkinligi nazariy va empirik tahlil talab qiladi. Aynan shu nazariy bo'shliq O'zbekiston Respublikasi misolida 2010–2025-yillardagi empirik dinamikalar orqali to'ldirilishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning markaziy ilmiy savoli quyidagi tarzda shakllantiriladi: O'zbekistonda hududlararo iqtisodiy tabaqalashuv kuchayyapti yoki qisqarmoqda? Davlat ijtimoiy siyosati hududiy tafovutlarni qisqartirishda samaradormi? Va eng muhimi – ushbu ikki jarayon o'zaro qanday munosabatda? Tadqiqotning markaziy gipotezasi shundan iboratki, O'zbekistonda iqtisodiy divergentsiya va ijtimoiy konvergentsiya bir vaqtning o'zida mavjud bo'lib, mazkur "markaziy paradoks" bozor mexanizmlari va davlat siyosatining strukturali muvozanatini ifodalaydi.

2. Adabiyotlar tahlili

Hududlararo iqtisodiy tabaqalashuvning eng ilk va ta'sirli izohlaridan birini G. Myrdal (1957) o'zining "Iqtisodiy nazariya va kambag'al hududlar" asarida taqdim etgan. Myrdal kumulyativ sabab-ta'sir (cumulative causation) konsepsiyasiga ko'ra, hududlararo iqtisodiy tafovutlar bir martalik hodisa emas, balki o'zini-o'zi kuchaytiruvchi jarayondir: yetakchi hududlar kapital, malakali kadrlar va investitsiyalarni o'ziga jalb qiladi, kambag'al hududlar esa nisbiy yo'qotuv holatida qoladi.

P. Krugman (1991) "yangi iqtisodiy geografiya" (new economic geography) konsepsiyasida hududiy konsentratsiyaning matematik modelini ishlab chiqdi. Markazlashuv kuchlari (centripetal forces) – katta bozor hajmi, transport xarajatlarining kamayishi va malakali ishchi kuchining mavjudligi – yetakchi hududlarda iqtisodiy faollikning kuchayuvchi konsentratsiyasini yuzuga keltiradi. Krugman modelida hududlararo divergentsiya – bozor iqtisodiyotining intrinsik xususiyati hisoblanadi va davlat aralashuvisiz to'xtatib bo'lmaydi.

M. Castells (1996) "tarmoq jamiyati" (network society) konsepsiyasida zamonaviy iqtisodiyotda hududning iqtisodiy salohiyati uning tarmoq tugunlari (network nodes) sifatidagi pozitsiyasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini ko'rsatdi. Mazkur konsepsiya raqamli iqtisodiyot davrida agglomeratsion jarayonlarning yangi shakllarini tushuntiradi va Krugman modelini multinational miqyosga kengaytiradi. P. DiMaggio va E. Hargittai (2001) raqamli tengsizlik (digital inequality) ramkasini, J. van Dijk (2005) esa uch darajali raqamli ajralish (three-level digital divide) modelini taklif etganlar.

R. Solow (1956) va T. Swan (1956) tomonidan rivojlantirilgan o'sish modellarida "shartli konvergeniya" (conditional convergence) konsepsiyasi shakllantirilgan: kapital chuqurligi (capital deepening) jarayoni natijasida past darajadan boshlangan iqtisodiyotlar yetakchi iqtisodiyotlardan tezroq o'sadi va ular bilan asta-sekin yaqinlashadi. Mazkur konsepsiya hududiy darajada ham qo'llaniladi va kommunal infratuzilmaning konvergent dinamikasini empirik tasdiqlaydi.

G. Esping-Andersen (1990) "farovonlik kapitalistik davlatlari uch dunyosi" (Three Worlds of Welfare Capitalism) tipologiyasida davlatlarning ijtimoiy siyosatini uch tipga ajratgan: liberal (qoldiq), konservativ-konseptual va sotsial-demokratik. Mazkur tipologiya davlatning ijtimoiy mahrumlikni qisqartirish bo'yicha rolining empirik bahalashiga imkon yaratadi va emerging iqtisodiyotlardagi farovonlik davlati shakllanish jarayonini tushunish uchun fundamental ramka hisoblanadi.

T. Piketti (2014) "Capital in the Twenty-First Century" asarida $r > g$ shartini formulalashtirgan: kapital qaytariligi iqtisodiyot o'sish sur'atidan yuqori bo'lganida, boyluk konsentratsiyasi tizimli ravishda kuchayadi. Piketti ning ikkinchi muhim tezi — davlat siyosati orqali (soliq, transfer to'lovlari, investitsion qayta taqsimot) boyluk konsentratsiyasini cheklab, ijtimoiy mahrumlikni qisqartirish empirik mumkin. Mazkur ikki tezis birgalikda — bozor divergenziyasi va davlat konvergenziyasining bir vaqtdagi mavjudligi — markaziy paradoksnin nazariy asosini tashkil etadi.

Markaziy Osiyo iqtisodiyotlarining o'tish davridagi hududiy tabaqalashuvi xalqaro adabiyotda turli ramkalardan o'rganilgan. World Bank (2018, 2022) hisobotlarida O'zbekistondagi hududlararo tafovutlarning empirik dinamikasi va kambag'allik dasturlarining samaradorligi muhokama qilingan. UNDP (2020, 2023) Inson rivojlanish indeksi (Human Development Index) doirasida hududiy darajadagi farqlarni tahlil qilgan. OECD (2021) Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy siyosat tavsiyalari ishlab chiqqan.

Mahalliy adabiyotda hududiy tabaqalashuv masalasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan, biroq ko'p o'lchovli, izchil va uzoq muddatli (15 yillik) empirik baza asosida olib borilgan tahlillar yetarli emas. Mazkur tadqiqot ushbu adabiyot bo'shligini to'ldirishga va O'zbekiston tajribasini xalqaro ilmiy diskursga olib chiqishga qaratilgan.

3. Ma'lumotlar va metodologiya

3.1. Empirik baza

Tadqiqotning empirik bazasini Hududlarning Ijtimoiy Tabaqalashuv Holati Indeksi (HITHI) doirasida shakllantirilgan ma'lumotlar majmuasi tashkil etadi. Tahlil 12 ustuvor yo'nalish, 14 hudud kesimida (12 viloyat, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi) va 181 indikator bo'yicha 2010–2025-yillar oralig'ida amalga oshirildi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining

stat.uz rasmiy SDMX bazasi, qonun hujjatlari ma'lumotlar bazasi (lex.uz), shuningdek UNDP, Jahon Banki va OECD ning xalqaro indeksleri ishlatildi.

3.2. *Triangular Convergence Index (TCI) metodologiyasi*

Yo'nalishlarni tanlash uchun ushbu tadqiqot doirasida Triangular Convergence Index (TCI) metodologiyasi ishlab chiqildi. TCI – yo'nalishning ilmiy ahamiyatini uch manba bo'yicha qamrov darajasi orqali baholaydi:

$$TCI_d = 0,40 \times T_d + 0,35 \times I_d + 0,25 \times P_d$$

bu yerda T_d – nazariy maktablar qamrovi (30 ta nazariyotchi), I_d – xalqaro indekslar qamrovi (11 ta indeks), P_d – davlat hujjatlari qamrovi (6 ta strategik hujjat). Og'irlik koeffitsientlari ekspert baholash usuli orqali aniqlangan: nazariy asoslar – 40 foiz, xalqaro standartlar – 35 foiz, milliy siyosat – 25 foiz. Bo'sag'a qiymat $TCI \geq 0,30$ – yo'nalish HITHI tarkibiga kiritilishi uchun mezon.

3.3. *Tabaqalashuv tipologiyasi*

Hududiy tabaqalashuv yo'nalishini aniqlash uchun variatsiya koeffitsientining (Coefficient of Variation, CV) dinamik evolyutsiyasi ishlatildi:

$$CV = (\sigma / \mu) \times 100\%$$

bu yerda σ – standart og'ish, μ – o'rtacha qiymat. Indikator tipologiyasi quyidagi mezonlar asosida aniqlandi: agar $CV-N < 0,90 \times CV-1$ (kamida 10 foiz pasayish) – konvergent; agar $CV-N > 1,10 \times CV-1$ (kamida 10 foiz o'sish) – divergent; aks holda – aralash. Yo'nalish darajasidagi tipologiya tarkibidagi indikatorlar tipologiyasining og'irlikdagi yig'indisi orqali aniqlandi.

3.4. *Qo'shimcha statistik mezonlar*

Variatsiya koeffitsienti bilan bir qatorda quyidagi qo'shimcha o'lchovlar ishlatildi: Max/Min nisbati – eng oddiy va vizual ravishda tushunarli o'lchov; β -konvergensiya – past darajadan boshlangan hududlarning yetakchi hududlarga yaqinlashuv tezligi (Barro va Sala-i-Martin, 1992); σ -konvergensiya – hududlar o'rtasidagi tafovutning vaqt o'tib qisqarishi. Mazkur ko'p o'lchovli yondashuv tabaqalashuv jarayonlarining strukturali xarakterini empirik darajada to'liq baholashga imkon yaratadi.

4. Natijalar

Empirik tahlilning birinchi natijasi – 12 yo'nalish bo'yicha tipologik taqsimot. Tahlil natijalariga ko'ra, yo'nalishlardan 4 tasi (33 foiz) divergent yo'nalishda, 6 tasi (50 foiz) aralash xarakterga ega va atigi 2 tasi (17 foiz) konvergent yo'nalishda harakatlanmoqda. Mazkur taqsimot tabaqalashuvning umumiy yo'nalishi divergent xarakterga moyil ekanligini va siyosiy aralashuv talab qilishini empirik tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval

Yo'nalishlar bo'yicha umumiy tipologiya va TCI reytingi

№	Yo'nalish	TCI	Indikator	Tip
1	Ta'lim va inson kapitali	0,560	23	Divergent
2	Daromad va mulk	0,515	13	Divergent
3	Aholi salomatligi	0,475	36	Aralash
4	Mehnat bozori va bandlik	0,419	16	Aralash
5	Uy-joy va turmush sharoiti	0,343	28	Aralash

№	Yo'nalish	TCI	Indikator	Tip
6	Hududiy infratuzilma	0,337	18	Aralash
7	Kambag'allik va ijtimoiy mahrumlik	0,329	8	Konvergent
8	Institutsional sifat	0,324	7	Aralash
9	Atrof-muhit va ekologiya	0,279	6	Divergent
10	Avlodlararo mobillik	0,278	18	Aralash
11	Xavfsizlik va jinoyatchilik	0,266	4	Konvergent
12	Raqamli infratuzilma	0,257	4	Divergent

Manba: muallif tomonidan jamlangan; rang-kodi: pushti – divergent, sariq – aralash, yashil – konvergent.

Tahlil natijalarining birinchi guruhi – bozor mexanizmlarining tabaqalashtiruvchi ta'sirini empirik tasdiqlovchi natijalardir. Hududlararo iqtisodiy tabaqalashuvning eng to'g'ridan-to'g'ri o'lchovi – yalpi hududiy mahsulot (YaIM) ko'rsatkichidir. 2010–2024-yillar davomida 14 hudud kesimida YaIM ning Max/Min nisbati 3,05 dan 6,85 martagacha kengaygan, ya'ni atigi 14 yil ichida hududlararo iqtisodiy tafovut 2,25 marta oshgan. Mutloq qiymat darajasida Toshkent shahrining mamlakat YaIM dagi ulushi 24 foizdan 31 foizgacha kengaygan.

Empirik natijalarning ikkinchi muhim jihati – Toshkent shahri va Toshkent viloyatining ko'p o'lchovli agglomeratsion magnit roli. Mazkur markazlashuv yetti yo'nalishda bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi: oliy ta'lim talabalari (Max/Min 22,6 marta), AKT bandligi (76,2 marta), aholi zichligi (702 marta), tibbiyot resurslari (4,7 marta), migratsion qabul (yiliga 20 004 kishi qoshilgan), raqamli kapital (76,2 marta), iqtisodiy salohiyat (6,85 marta). Mazkur ko'p o'lchovli konsentratsiya P. Krugman markazlashuv kuchlari va M. Castells tarmoq jamiyati nazariyalarining yorqin empirik tasdig'i hisoblanadi.

Strukturali divergentsiyaning yashirin yuzlari ham empirik darajada qayd etildi. Atrof-muhit va ekologiya yo'nalishida atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar bo'yicha hududlararo Max/Min nisbati 105,7 martani tashkil etdi (Toshkent viloyati 465 vs Namangan viloyati 4,4 ming tonna). Raqamli infratuzilma sohasida AKT bandligi bo'yicha hududlararo Max/Min 40,3 martadan 76,2 martagacha kengaygan. Tabiiy gaz ta'minoti bo'yicha hududlararo CV 13,2 foizdan 36,2 foizgacha (+175 foiz) keskin o'sgan.

Tahlil natijalarining ikkinchi guruhi – davlat ijtimoiy siyosatining muvozanatlashtiruvchi ta'sirini empirik tasdiqlovchi natijalardir. Markaziy yutuq – kambag'allikning hududiy darajadagi keskin pasayishidir. Respublika bo'yicha kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan 2025-yilga kelib 5,7 foizgacha (-65 foiz) qisqargan. Hududlararo Max/Min nisbati 7,82 dan 1,91 martagacha (-75,5 foiz) tushgan, variatsiya koeffitsienti esa 44,4 foizdan 15,7 foizgacha (-64,6 foiz) qisqargan. Sirdaryo viloyati eng yorqin yutuqni qayd etgan: ko'rsatkich 30,5 foizdan 6,2 foizgacha (-79,7 foiz) tushgan (2-jadval).

2-jadval

Kambag'allik konvergensiyasi: empirik dinamika

Ko'rsatkich	2021	2025	Δ (%)
Respublika o'rtachasi (%)	17,0	5,7	-65,0
Max/Min nisbati	7,82x	1,91x	-75,5
Variatsiya koeffitsienti (%)	44,4	15,7	-64,6
Eng yuqori (Sirdaryo, %)	30,5	6,2	-79,7

Manba: stat.uz, 2021–2025-yillar dinamikasi.

Mazkur empirik natijalarni izohlovchi institutsional asos – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son Farmoni va PQ-330-son Qarori orqali joriy etilgan "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi. Dastur "Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat" tamoyili asosida amalga oshiriladi va Ijtimoiy reyestr, "mahalla yettiligi" mexanizmi, individual reja, maqsadli pul transferlari, ijtimoiy shartnoma, foizsiz qarz va yer maydonlari ijaraga berishni o'z ichiga olgan ko'p tarmoqli instrumentlar majmuasini qamrab oladi.

Boshqa konvergent yo'nalishlar ham empirik darajada qayd etildi. Birinchi avlod kommunal xizmatlarda: markazlashtirilgan ichimlik suvi CV -42 foiz, issiq suv CV -57 foiz, kanalizatsiya CV -47 foiz qisqargan. Institutsional desentralizatsiyada: chet el investitsiyalari ulushi bo'yicha CV 65,2 foizdan 14,0 foizgacha (-78 foiz) qisqargan, Buxoro va Navoiy viloyatlari ulushi Toshkent shahridan yuqori darajaga chiqdi. Jamiyat xavfsizligida: jami jinoyatlar CV -15 foiz, o'g'rilik CV -37 foiz qisqargan, Toshkent viloyati qasddan odam o'ldirish jinoyatlari 2024-yilda 0 ga (-100 foiz) tushgan.

Tahlilning markaziy natijasi – bozor divergensiyasi va davlat konvergensiyasining bir vaqtdagi mavjudligini empirik tasdiqlash. 2-yo'nalish (daromad va mulk) va 7-yo'nalish (kambag'allik va ijtimoiy mahrumlik) dinamikalarining qiyosi paradoksning eng aniq empirik manzarasini ifodalaydi (3-jadval).

3-jadval

Markaziy paradoks: yo'nalishlar dinamikalarini qiyoslash

Parametr	YaIM (2-yo'nalish)	Kambag'allik (7-yo'nalish)
Tendentsiya	Divergent	Konvergent
Boshlang'ich qiymat	3,05x (2010)	7,82x (2021)
Yakuniy qiymat	6,85x (2024)	1,91x (2025)
Dinamik o'zgarish	+125%	-75,5%
Asosiy mexanizm	Bozor markazlashuvi	Davlat ijtimoiy yordami

Manba: stat.uz, lex.uz, 2010–2025-yillar dinamikasi.

Mazkur jadval markaziy paradoksning empirik mohiyatini eng aniq tarzda ifodalaydi: hududlararo iqtisodiy salohiyat tafovuti 14 yil davomida 2,25 marta kengaygan vaqtda, kambag'allik bo'yicha tafovut 4 marta qisqargan. Ikkala dinamikan ham statistik ahamiyatli, izchil va uzoq muddatli xarakterga ega – bu paradoksning tasodifiy emas, balki strukturali xarakterda ekanligini empirik tasdiqlaydi.

5. Muhokama

Iqtisodiy divergentsiya va ijtimoiy konvergentsiyaning bir vaqtdagi mavjudligi tashqi nuqtai nazardan qarama-qarshi ko'rinishi mumkin: nima uchun ikki yo'nalish bir-biriga teskari harakat qiladi? Biroq nazariy va empirik tahlil natijalari mazkur ikki jarayonning qarama-qarshilik emas, balki strukturali muvozanat ekanligini ko'rsatadi. Ular turli sub'yektlar tomonidan, turli mexanizmlar orqali, turli maqsadlar uchun amalga oshiriladi.

Bozor mexanizmlari – investitsiya oqimlari, ish o'rinlari yaratish, kapital harakatchanligi, raqamli xizmatlar tarqalishi – sof iqtisodiy mantig'i bilan ishlaydi va o'z tabiatiga ko'ra yetakchi hududlarni rivojlanishni quvvatlaydi. Mazkur jarayonlar Krugman markazlashuv kuchlari va Myrdal kumulyativ sabab-ta'sir mexanizmlari orqali divergentsiyani yuzaga keltiradi va kuchaytiradi. Davlat ijtimoiy siyosati esa boshqa mantig' bilan ishlaydi: u bozor natijalarini avtomatik qabul qilmaydi, balki ijtimoiy tenglik va minimal farovonlik standartlari nuqtai nazaridan korreksiya qiladi.

T. Piketti (2014) yondashuvi mazkur paradoksni nazariy darajada tushuntirish uchun zaruriy ramkani taqdim etadi. Piketti ning birinchi tezisi ($r > g$ sharti) bozor mexanizmlari natijasida boylik konsentratsiyasining kuchayishini empirik bashorat qiladi. O'zbekiston empirik holatida hududlararo YaIM divergentsiyasi ($3,05x \rightarrow 6,85x$) Piketti birinchi tezisining hududiy darajadagi tasdig'idir. Piketti ning ikkinchi tezisi – davlat siyosati orqali boylik konsentratsiyasini cheklab, ijtimoiy mahrumlikni qisqartirish empirik mumkin – esa O'zbekistondagi PF-143 dasturi natijasida kambag'allik konvergentsiyasi ($7,82x \rightarrow 1,91x$) orqali tasdiqlanadi.

Mazkur ikki tezis birgalikda paradoksni nazariy darajada to'liq izohlaydi va O'zbekiston empirik holatining Piketti tipologiyasidagi uchinchi tipga (kuchli iqtisodiy o'sishda boylik konsentratsiyasi va aktiv davlat siyosati) yaqinlashuvini ko'rsatadi.

Yuqorida tahlil qilingan konvergent dinamikalar G. Esping-Andersen ning farovonlik kapitalistik davlatlari uch dunyosi tipologiyasi nuqtai nazaridan O'zbekistonning qoldiq (residual) farovonlik rejimidan konservativ-konseptual rejimga o'tish belgilarini namoyon etadi. Mazkur tipologik o'zgarish O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida (2023-yil 30-aprel referendum) e'lon qilingan paradigmaning o'zgarishi - "davlat – jamiyat – shaxs" eski paradigmasidan "inson – jamiyat – davlat" yangi paradigmasiga o'tish – bilan to'liq mos keladi.

Konstitutsiyaning 1-moddasida birinchi marta O'zbekiston "ijtimoiy davlat" sifatida e'lon qilindi, 14-moddasida ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillari belgilandi, IX bobida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar 23 moddadan 34 moddagacha kengaytirildi. Mazkur konstitutsiyaviy o'zgarishlar farovonlik davlati shakllanishining huquqiy infratuzilmasini tashkil etadi va konvergent siyosatning institutsional barqarorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun bir nechta muhim xulosalarni shakllantiradi. Birinchidan, bozor mexanizmlari va davlat siyosatining bir vaqtdagi mavjudligi paradoks emas, balki strukturali norma hisoblanadi va bu modelni boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun ham qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha maqsadli (targeted) yondashuv – universalist yondashuvga qaraganda samaradorligi yuqori ekanligini empirik tasdiqlaydi.

Uchinchidan, hududiy darajadagi monitoring tizimi (HITHI) davlat siyosatining samaradorligini empirik baholashga imkon yaratadi.

Tadqiqotning cheklovlari ham ko'rsatilishi lozim. Birinchi cheklov – ma'lumotlar 14 hudud kesimida olib borilgan, mahalla va tuman darajasidagi mikro-ma'lumotlar tahlilga kiritilmagan. Ikkinchi cheklov – 12-yo'nalish (raqamli infratuzilma) bo'yicha rasmiy SDMX bazasi cheklangan va proksi indikatorlar ishlatilgan. Uchinchi cheklov – 10-yo'nalish (avlodlararo mobillik) longityudal panel ma'lumotlarini talab qiladi, bu yo'nalishda yangi metodologik vositalarni ishlab chiqish kerak. Mazkur cheklovlar kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlarni belgilaydi.

6. Xulosa

Birinchidan, tadqiqotning markaziy gipotezasi empirik tasdiqlandi: O'zbekistonda iqtisodiy divergentsiya va ijtimoiy konvergentsiya bir vaqtning o'zida mavjud bo'lib, mazkur "markaziy paradoks" bozor mexanizmlari va davlat siyosatining strukturali muvozanatini ifodalaydi. Hududlararo YaIM tafovuti 3,05 dan 6,85 martagacha (+125 foiz) kengaygan, kambag'allik tafovuti esa 7,82 dan 1,91 martagacha (-75,5 foiz) qisqargan.

Ikkinchidan, bozor divergentsiyasining strukturali xarakteri Toshkent agglomeratsion magnit fenomeni orqali namoyon bo'ladi: yetti yo'nalishda bir vaqtning o'zida ekstremal markazlashuv P. Krugman markazlashuv kuchlari va M. Castells tarmoq jamiyati nazariyalarining empirik tasdig'idir.

Uchinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining samaradorligi PF-143 "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi (2024) natijasida kambag'allik konvergentsiyasi va boshqa konvergent dinamikalar orqali empirik darajada tasdiqlandi. Mazkur natijalar G. Esping-Andersen tipologiyasidagi konservativ-konseptual rejimga o'tish belgilarini namoyon etadi.

To'rtinchidan, T. Piketti yondashuviga muvofiq, paradoksning haqiqiy mohiyati ikki strukturali kuchning bir vaqtdagi harakatidir: bozor – divergentsiyani yaratuvchi kuch, davlat – ijtimoiy mahrumlikni qisqartiruvchi kuch. O'zbekiston tajribasi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun farovonlik davlati shakllanishining yangi modelini empirik asoslaydi.

Beshinchidan, paradoksning dinamik xarakteri uzluksiz monitoringni talab qiladi. Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan HITHI monitoring tizimi 12 yo'nalish, 14 hudud va 181 indikator bo'yicha real vaqt rejimida kuzatish va davlat boshqaruv qarorlarini empirik asoslashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (1992). Convergence. *Journal of Political Economy*, 100(2), 223–251.
2. Castells, M. (1996). *The Rise of the Network Society: The Information Age (Vol. 1)*. Blackwell Publishers.
3. DiMaggio, P., & Hargittai, E. (2001). From the 'Digital Divide' to 'Digital Inequality': Studying Internet Use as Penetration Increases. Princeton University Center for Arts and Cultural Policy Studies, Working Paper Series #15.
4. Esping-Andersen, G. (1990). *The Three Worlds of Welfare Capitalism*. Princeton University Press.

5. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. *Journal of Political Economy*, 99(3), 483–499.
6. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade*. MIT Press.
7. Myrdal, G. (1957). *Economic Theory and Underdeveloped Regions*. Gerald Duckworth & Co. Ltd.
8. Piketty, T. (2014). *Capital in the Twenty-First Century*. Harvard University Press.
9. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.
10. Swan, T. W. (1956). Economic Growth and Capital Accumulation. *Economic Record*, 32(2), 334–361.
11. van Dijk, J. A. G. M. (2005). *The Deepening Divide: Inequality in the Information Society*. Sage Publications.
12. OECD (2021). *Regional Outlook for Central Asia: Promoting Inclusive Growth and Sustainable Development*. OECD Publishing, Paris.
13. UNDP (2020). *Human Development Report 2020: The Next Frontier — Human Development and the Anthropocene*. United Nations Development Programme, New York.
14. UNDP (2023). *Uzbekistan: Human Development Report 2022*. United Nations Development Programme, Tashkent.
15. World Bank (2018). *Uzbekistan Systematic Country Diagnostic*. World Bank Group, Washington DC.
16. World Bank (2022). *Uzbekistan Country Economic Memorandum*. World Bank Group, Washington DC.
17. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahriri). 2023-yil 30-apreldagi umumxalq referendumida qabul qilingan. Manba: <https://lex.uz/docs/-6445145>
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida". Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6600390>
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF-143-son Farmoni "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". Manba: <https://www.lex.uz/uz/docs/-7109857>
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-330-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-7109778>
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 125-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-7410357>
23. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy SDMX bazasi. Manba: <https://stat.uz>
24. Hududlarning Ijtimoiy Tabaqalashuv Holati Indeksi (HITHI). Monitoring platformasi. Manba: <https://beta-stata.netlify.app/republic>
25. O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot qonuni hujjatlari bazasi. Manba: <https://lex.uz>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

